

QONUN TARJIMASI VA HUQUQIY EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON VA AQSHDA OILA HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY TALQINI)

Po'latova Dilrabo Abduxakim qizi

Toshkent Kimyoxalqaro universiteti

“Tarjimashunoslik (xitoy-ingliztili)”

yo'nalishi 4-kurs talabasi

dilraboabdurashidova11@gmail.com

+998946538454

Ilmiy rahbar: Xamidova Mohinaxon

Toshkent Kimyoxalqaro universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti”

Kafedra katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekiston Konstitutsiyasining XIV bobidagi “Oila, bolalar va yoshlar”ga oid moddalarning ingliz tiliga tarjimasi turli tarjima modellari — funksional ekvivalent, tavsifiy tarjima, izohli tarjima hamda qisqartirilgan/uzaytirilgan tarjimalar asosida tahlil qilindi. AQSH Konstitutsiyasida oila bo'yicha alohida bob mavjud emasligi, bu mavzular shtat qonunchiligi va maxsus federal aktlar bilan tartibga solinishi sababli, inglizcha tarjimada ko'plab bandlar mazmuniy moslashtirish (functional equivalence) orqali berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, oila huquqi, tarjima modellari, funksional ekvivalent, tavsifiy tarjima, izohli tarjima, huquqiy tarjima, AQSH huquqi, O'zbekiston Konstitutsiyasi

АННОТАЦИЯ: В данной статье проведён анализ английского перевода XIV главы Конституции Республики Узбекистан («Семья, дети и молодежь») с

использованием различных моделей перевода: функционального эквивалента, описательного, пояснительного, а также сокращенного/расширенного перевода. Поскольку в Конституции США отсутствует отдельная глава о семье (данные вопросы регулируются семейным правом штатов и федеральными актами), при переводе многие положения были адаптированы методом функционального эквивалента.

Ключевые слова: Конституция, семейное право, модели перевода, функциональный эквивалент, описательный перевод, пояснительный перевод, юридический перевод, право США, Конституция Узбекистана

ABSTRACT: This article analyzes the English translation of Chapter XIV (“Family, Children, and Youth”) of the Constitution of Uzbekistan through various translation models, including functional equivalence, descriptive translation, explanatory translation, and reduced/expanded translation. Since the U.S. Constitution does not contain a separate chapter on family issues — which are regulated instead by state family law and specific federal acts — many clauses in the English version required functional equivalence to find the closest legal counterparts.

Keywords: Constitution, family law, translation models, functional equivalence, descriptive translation, explanatory translation, legal translation, U.S. law, Constitution of Uzbekistan

Kirish. Har bir millat o‘z ili, madaniyati, tarixi, qonunlari, urf-odatlar hamda qadriyatlariga ega. Shu sababli, millatlar o‘zaro aloqa o‘rnatish va bilim almashish jarayonida tarjimaga ehtiyoj sezadilar, bu esa tarjimashunoslik fanining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shu bois tarjimashunoslik bugungi kunda xalqaro muloqot, madaniyatlararo aloqa va bilim almashinuvi jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Ushbu maqolada konstitutsiyaning “Oila” bo‘limini tarjimadagi asosiy qiyinchiliklarini ko‘rib chiqamiz. Bu kabi huquqiy tarjimaga yuzlanganimizda

terminologik nomuvofiqliklar, madaniy farqlar, huquqiy tizimlar farqlari kabi mumammolarga e'tibor bergan holda tarjima qilish zarur. Konstitutsiya tilida uslubi aniq, rasmiy, huquqiy va albatta neytral bo'lishi shart.

Tarjima usullari: Funksional ekvivalent (Functional Equivalent), tavsifiy (Descriptive), izohli (Explanatory Translation), qisqartirilgan\uzaytirilgan tarjimalarga bo'linadi.[1]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV bob. Oila, bolalar va yoshlar[5]

76-modda.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.[2]

Tarjimasi:[5]

The family is the primary unit of the society and is under the protection of society and the state.

Marriage shall be based on the traditional family values of the people of Uzbekistan, the free consent and equality of those entering into marriage.

The State shall create the social, economic, legal and other conditions for the full development of the family.

Tahlil:

1. Funksional ekvivalent

*“Oila jamiyatning asosiy **bo'g'ini**” – the fundamental **unit** of society*

Ingliztilida “bo'g'in” (cell, link) huquqiy kontekstdan uzoq. Eng mos ekvivalent —**unit**.

2. Tavsifiy tarjima

“the free consent” – free will + mutual consent ya’ni o‘zbek huquqida bu ikki tushuncha birlashib **“ixtiyoriy rozilik”** tarzida kelgan .

3.Izohli tarjima

1) *Nikoh tengligi* deganda nikohlanuvchilarning masalaga hamjihatlik bilan yondashib hal qilish masalasi ham tushunilsa, ingliz tiliga tarjima qilinganida bu avtomatik tushunilmaydi.

2) Nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligi – free consent of those **“entering into marriage”** – asl matnda yo‘q lekin ma’noni aniqlashtirib izohli tarjimadan foydalanilgan.

77-modda.[5]

Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

Tarjimasi: [5]

Until the children are of age, parents and guardians shall be obliged to support them, take care of their upbringing, education and healthy, full and harmonious development.

The state and society shall ensure the maintenance, upbringing, education, and healthy, full and harmonious development of orphans and children deprived of the guardianship of their parents, and encourage charitable activities to this end.

1.Funksional

ekvivalent

Ota-onalar...g‘amxo‘rlik qilishga majburlar – parents ... shall be obliged to support them

- Huquqiy majburiyatni to‘g‘ri ifodalaydi.

Yetim bolalar – ***orphans*** - to‘g‘ri ekvivalent.

2. Tavsifiy tarjima

ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalar – ***children deprived of the guardianship of their parents***

Bu tarjimada tavsif orqali tushuntirish bor.

3. Izohli tarjima

Asl matndagi “***to‘laqonli***” so‘ziga izohlovchi 3 ta sifat berilgan.

Bular “***healthy, full and harmonious development***”

78-modda. [5]

Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Tarjimasi: [5]

Children are equal before the law regardless of their parents' origin and civil status.

The State shall take responsibility to ensure and protect the rights, freedoms and legitimate interests of the child and to create the best conditions for his or her full physical, mental and cultural development.

Motherhood, fatherhood and childhood shall be protected by the state.

The State and society shall attend to fostering in children and young people a commitment to national and universal human values, pride in the country and the rich cultural heritage of the nation, a sense of patriotism and love of the Motherland.

1. Funksional ekvivalent

- qonun oldida tengdirlar – equal before the law

huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari – rights, freedoms and legitimate interests

2. Tavsifiy tarjima

jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi – **full physical, mental and cultural development**

Qisqa, aniq va tavsifiy tarjimadan foydalanilgan

3. Izohli tarjima

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish –

fostering ...a commitment to national and universal human values

“Commitment” — mazmunni tushunarli qilish uchun izohlovchi sifatida kelgan.

4. Uzaytirilgan tarjima

xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni – **pride in the country** and the rich cultural heritage of the nation

“Country” qo‘shilgan — tarjimada mazmun kengaygan.

79-modda. [5]

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Tarjimasi: [5]

The State shall ensure the protection of personal, political, economic, social, cultural and ecological rights of young people, and encourage their active participation in the life of society and the State.

The State shall create conditions for intellectual, creative, physical and moral formation and development of young people, the exercise of their rights to education, health care, housing, recruitment, employment and recreation.

1. FunkSIONAL ekvivalent

- huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi – ensure the protection of ... rights

Xalqaro huquqiy standart ibora.

- faol ishtirok etishini rag'batlantiradi – encourage their active participation

2. Tavsifiy tarjima

shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlar – personal, political, economic, social, cultural and ecological rights

3. Izohli tarjima

bandlik – employment

4. Qisqartirilgan tarjima

Asl matnda "*uy-joyga ega bo'lish*" degan ma'no bor, lekin inglizchada **housing** umumlashtirilgan.

80-modda. [5]

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar.

Tarjimasi:

Able-bodied children, who are of age, shall be obliged to care for their parents.

1. FunkSIONAL ekvivalent

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar – Able-bodied children, who are of age

“Able-bodied” — to‘g‘ri huquqiy ekvivalent.

2. Izohli tarjima

“who are of age”

Asl matnda yo‘q, lekin *“voyaga yetgan”*ni aniq ifodalaydi.

3. Qisqartirilgan tarjima

g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar – shall be obliged to care for their parents

Qisqa, ammo to‘liq ma‘noni beradi

AQSH huquqiy tizimi bilan taqqoslash

AQSHda Konstitutsiyada **“family section”** yo‘q[3], bu mavzular quyida berilgan:

- Family Law — shtatlar qonuni
- Child Welfare Act
- Parental Responsibility Acts
- Juvenile Justice Standards
- Orphans Act

Shuning uchun inglizcha tarjimada ko‘plab bandlar *“functional equivalence”*ga moslab berilgan.

O‘zbekiston konstitutsiyasidagi ijtimoiy kafolatlar — oila, bolalar va yoshlar huquqlarini keng doirada tartibga qo‘yadi va davlatga ularga ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sharoit yaratish majburiyatini yuklaydi. AQSH kontekstida bunday keng kafolatlar konstitutsiyada emas, alohida qonunlarda tartibga solinadi — ya‘ni, tarjimada xalqaro auditoriyaga tushunarli bo‘lish uchun “izohli” va “tavsifiy” tarjima usullari kerak bo‘ladi.

Biroq, federal konstitutsiyada (ya‘ni, asosiy konstitutsiyaviy matnda) O‘zbekiston konstitutsiyasidagi kabi keng ijtimoiy kafolatlar — “davlat tomonidan ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlar yaratish” shaklida emas. AQSHda oilaviy huquqlar asosan "liberty", "due process", "equal protection" kabi umumiy prinsiplar

doirasida himoyalangani, ammo davlat ijtimoiy himoya majburiyati konstitutsiyada qat'iy ko'rsatilmagan.[4]

XULOSA:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobida oilani, bolalarni va yoshlarni himoya qilishga oid normalarning ingliz tiliga tarjimasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy matnlarni tarjima qilish jarayoni oddiy til almashtirish emas, balki tizimli, mazmuniy va madaniy moslashtirishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Konstitutsiyadagi "oila", "ona va bola himoyasi", "milliy va umuminsoniy qadriyatlar", "yoshlarning huquqlari" kabi tushunchalar ingliz tilidagi huquqiy tizimda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentsiz bo'lgani uchun ularni tarjima qilishda funksional ekvivalent, tavsifiy tarjima va izohli tarjima kabi usullar keng qo'llanildi. XIV bob matnining ingliz tiliga tarjimasi shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyaviy-huquqiy matnlar tarjimasida nafaqat til bilimi, balki huquqiy tizimlar farqini, milliy qadriyatlarning mazmunini, shuningdek, madaniy va kontseptual tafovutlarni chuqur tushunish zarur. To'g'ri qo'llangan tarjima usullari matnning mazmuni to'g'ri saqlanishiga, huquqiy aniqligini va xalqaro auditoriya uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, oila, bolalar va yoshlar huquqlariga oid konstitutsiyaviy normalarning tarjimasi ushbu sohada tarjimashunoslikning dolzarbligini, huquqiy atamalarni standartlashtirish zaruratini va madaniyatlararo yondashuvning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. A text book of translation – Peter Newmark
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
3. <https://www.usconstitution.net/limits-of-state-power-in-family-law/>
4. <https://www.law.cornell.edu/constitution-conan/amendment-14/family-autonomy-and-substantive-due-process>
5. <https://lex.uz/docs/-6445145>